

O'ZBEK TILI O'GUZ LAHJASIDAGI MAISHIY LEKSIKANING TIPOLOGIK  
TAHLILI

**Sobirova Nazokat Ro'zimboy qizi**

Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo tillari  
va madaniyati instituti 2-bosqich magistranti.

[nsobirova0106@gmail.com](mailto:nsobirova0106@gmail.com) +99891-424-74-90

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20448447>

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada o'zbek tilining o'g'uz lahjasiga oid maishiy leksikaning geneologik tahlili keltiriladi. O'g'uz lahjasiga oid turli ishlar va lug'atlar asosida yig'ilgan so'zlar doirasida ularning qaysi tildan kelib chiqib, o'rganilayotgan lahjada qay darajada ishlatilganligi statistik va tahliliy metodlar asosida yoritilgan. Maqolaning maqsadi – o'g'uz lahjasi o'rganilishini yanada kengaytirish, leksik qatlamning kelib chiqishini tahlil qilish orqali lahjaning o'ziga xos jihalarini ochib berish. Tadqiqot natijalari o'g'uz lahjasi va uning o'rganilish masalalariga qo'shimcha ilmiy manba bo'la oladi.

**Kalit so'zlar:** o'g'uz lahjasi, o'g'uz etnogenezi, leksik qatlam, maishiy leksika, umumturkiy leksemalar, sheva, uy-ro'zg'or leksikasi, o'zlashma qatlam.

ТИПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ БЫТОВОЙ ЛЕКСИКИ ОГУЗСКОГО ДИАЛЕКТА  
УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

**Аннотация.** В данной научной статье представлен генеалогический анализ бытовой лексики огузского диалекта узбекского языка. На основе различных исследований и словарей, посвящённых огузскому диалекту, рассматриваются собранные лексические единицы, их происхождение и степень употребления в исследуемом диалекте с применением статистических и аналитических методов. Цель статьи заключается в дальнейшем расширении изучения огузского диалекта, а также в выявлении его специфических особенностей посредством анализа происхождения лексического слоя. Результаты исследования могут служить дополнительным научным источником по вопросам изучения огузского диалекта и проблемам его исследования.

**Ключевые слова:** огузский диалект, огузский этногенез, лексический слой, бытовая лексика, общетюркские лексемы, говор, лексика предметов домашнего обихода, заимствованный слой.

TYPOLOGICAL ANALYSIS OF THE EVERYDAY VOCABULARY OF THE OGHUZ  
DIALECT OF THE UZBEK LANGUAGE

**Abstract.** This scientific article presents a genealogical analysis of the everyday vocabulary of the Oghuz dialect of the Uzbek language. Based on various studies and dictionaries related to the Oghuz dialect, the collected lexical units are examined in terms of their origin and the degree of their usage in the studied dialect through statistical and analytical methods. The aim of the article is to further expand the study of the Oghuz dialect and to reveal its distinctive features through the analysis of the origin of its lexical layer. The results of the research may serve as an additional scientific source for the study of the Oghuz dialect and issues related to its investigation.

**Keywords:** *Oghuz dialect, Oghuz ethnogenesis, lexical layer, everyday vocabulary, Common Turkic lexemes, dialect, household vocabulary, borrowed layer.*

**Kirish.** Tilimizning tarixiga nazar salsak, o'g'uz qabilalari va tili turkiy tillar oilasining nufuzli qismlaridan biri bo'lgan. Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asarida ham og'uz tili va uning tavsifi alohida keltirib o'tilgan: o'g'uz – turklarning bir qabilasi. Ular turkmanlardir. Ular yigirma ikki urug'dir; ularning har birining maxsus belgilari, mollariga xos tamg'alari bordirki, urug'larni shu tamg'alariga qarab ayiradilar.<sup>1</sup> Shuningdek, o'g'uz qabilalari urug'larining qiniq, qayig', bayun, iva, solg'ur, afshar, begtili, buktuz, igdar, bajanak kabi nomlarini ham keltirib o'tadi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da o'g'uz etnogenezi bugungi kunda turkman, ozarbayjon, turk, gagauz, va qoraqalpoqlar etnogenezida muhim ro'l o'ynagani keltirilib o'tilgan.

**Asosiy qism.** O'zbek tili o'g'uz lahjasining leksik qatlamini tadqiq qilar ekanmiz unda turli lahja va tillarning ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Tahlillarimiz davomida o'g'uz lahjasi maishiy leksik birliklari orasida qadimgi o'g'uz tiliga oid birliklar, umumturkiy so'zlar, fors-tojik va arab so'zlari ham mavjud.

**Umumturkiy maishiy leksik birliklar.** O'zbek tili maishiy leksik birliklarining ko'pchilik qismini, ayniqsa, mehnat qurollari bilan bog'liq leksemalarning ko'pchiligi umumturkiy leksemalardir. Bunday birliklar o'g'uz lahjasi vakillari nutqida fonetik o'zgarishlarga uchragan holda saqlangan bo'lib, unlilar cho'ziqroq yoki qisqa, jarangli undoshlarning jarangsiz juftlari bilan almashgan hollarini ham uchratish mumkin. Masalan, *gijim, quman, tayariq, diivak, tavax, bilazik* kabi. Shuningdek, o'g'uz lahjasida uchraydigan umumturkiy so'zlarga xos bo'lgan maishiy leksik birliklarni quyidagicha mavzuviy guruhlarga ajratish mumkin:

1. Oshxonaga oid uy-ro'zg'or buyumlarini ifodalovchi leksik birliklar: *ozaq, dam-dam, kasav, qa:zan, quman, tayariq, ajaq, dijir, diivak, shanjil, sarak, kasa, su:saq, tavax, qashiq, qiryich, chanaq, chomish, sanaq, jelpuyich/jenliq, duvaq, elgazar, alak, echapar, kupi, pichaq, sijxak, tikach, joyich, chakar* va boshqalar.

2. Mehmonxona va yotoqxonaga oid uy-ro'zg'or buyumlarini ifodalovchi leksik birliklar: *shar-shar, dijunzik, kuzgu, takcha, tapchan, yiryirak, korpa, jayinliq, jejmä, doshaj, kijiz, korpacha, yali, koshajana* va boshqalar.

3. Kiyim-kechak va bezak buyumlarini ifodalovchi leksik birliklar: *eyinbash, giyim, gonak, guppi, quramish, jalañqat, chapan, chakman, chovurma, charvul, balaq, ichqir, istan, jelpavich, qapchiq, qolliq, qoshaq, papaq, qijiq, adik, chariq, bilazik, baldaq, duziy, dumdim, juzik* va boshqalar.

4. Mehnat qurollari nomlarini ifodalovchi leksik birliklar: *burav, gatman, acar, kurak, oraq, qirqliq, chokish, bichqi, jaryi, toqmaq, janayach, innä, ilmäk, jip, esik, qaziq, tambä, tutqich, jelim, jelim kasa, qarmaq, qurmaq, suzmä cholpi, chanchqi, chapqi, chumäk tash* va boshqalar.

<sup>1</sup> Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Уч томлик. I том. – Т.: Ўзфанакаднашр, 1960; Девону луғотит турк. Уч томлик. I том. – Т.: Mumtoz so'z, 2016, 54-b.

“Devoni lug‘otit turk”da keltirilgan manbalarga asosan o‘sha davrda ham o‘g‘uz tilida so‘zlashuvchilar nutqida qo‘llanilgan va bugungi kunda ham muomalada bo‘lgan ba‘zi so‘zlarni ham keltirishimiz mumkin: *qašiq, čanaq, tikāč, tavax, duvaq, sanač, pičaq, ajaq*.

**O‘g‘uz lahjasida uchraydigan fors-tojik tilidan o‘zlashgan maishiy leksik birliklar.**

Bugun o‘zbek tili o‘g‘uz lahjasining ko‘pchilik vakillari Xorazm hududida yashaganligi bois, hozirgi o‘g‘uz lahjasida ham ba‘zi so‘zlar va terminlar qadimgi xorazmiy tilidan saqlanib qolgan. Ular turli fonetik o‘zgarishlarga uchragan bo‘lishsa-da, bugungi kunda so‘zlashuv uslubida ancha faoldir. Qadimgi xorazmiy tili eroniy tillar guruhiga kirganligi sababli ham ayni o‘g‘uz lahjasining bugungi maishiy leksik birliklari orasida fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar ma‘lum darajada uchraydi. Bundan tashqari, asrlar davomida turli elat va millatlarning etnik qorishuvi natijasida ham fors-tojik leksikasi oid birliklar biroz ko‘paygan. So‘zlar orasida butunligicha fors-tojik tilidan o‘zlashgan, masalan, *gulmix* kabi so‘zlar ham bor. Shuningdek, asos qismi fors-tojik tilidan o‘zlashgan, lekin turkiy so‘z yasovchi qo‘shimchalar natijasida o‘zlashgan so‘zlar ham mavjud. Masalan, *čarxavik*.

O‘g‘uz lahjasida uchraydigan fors-tojik tilidan o‘zlashgan maishiy leksik birliklarni quyidagicha mavzui guruhlarga ajratish mumkin:

1. Oshxonaga oid uy-ro‘zg‘or buyumlarini ifodalovchi leksik birliklar: *tavan, mešik, xum, dōlā, sāvāt, zam, kāpkir, ābdāstā, čājgārdān, dāmkāč, rāpi:dā, xorzīn, torva, kundā, čarx* va boshqalar.

2. Mehmonxona va yotoqxonaga oid uy-ro‘zg‘or buyumlarini ifodalovchi leksik birliklar: *ajna, kilit, pa:nis, rāpčā, xakāndaz, dostirxan, šal, pārdā, sajavan, šāmijāna* va boshqalar.

3. Kiyim-kechak va bezak buyumlarini ifodalovchi leksik birliklar: *čarvul, lazīm, kisā, lāčāk, pota, rommal, pajzama, postīn, šappoš, zorap, zūlpitilla* va boshqalar.

4. Mehnat qurollari nomlarini ifodalovchi leksik birliklar: *zāmbār, ɣaltāk, tarazī, čarxavik, rāndā, dandāna, sārdoz, dāliz, dārvaza, zaj, me:manxana, mi:x, paxsa, tannov, arva, gūlmix, kādī* va boshqalar.

**O‘g‘uz lahjasida uchraydigan arab tilidan o‘zlashgan maishiy leksik birliklarda.**

O‘zbekiston hududi tarixiy bosqichlar davomida turli xil o‘zgarishlarga uchragan.

Shuningdek, o‘zbek tili ham qabila va elatlar aralashuvi, ijtimoiy-madaniy, ilmiy va siyosiy-iqtisodiy a‘loqalar, turli bosqinlar natijasida boshqa tillardan so‘zlar o‘zlashtirgan. Bunday tillar qatorida arab tili ham o‘zbek tili leksik qatlamiga ma‘lum darajada ta‘sir qilgan. Bu ta‘sir o‘zbek tili sheva va lahjalarida ham o‘z aksini topgan.

O‘g‘uz lahjasida uchraydigan arab tilidan o‘zlashgan maishiy leksik birliklarni quyidagicha mavzui guruhlarga ajratish mumkin:

1. Oshxonaga oid uy-ro‘zg‘or buyumlarini ifodalovchi leksik birliklar: *tandirča, lālī* va boshqalar.

2. Mehmonxona va yotoqxonaga oid uy-ro‘zg‘or buyumlarini ifodalovchi leksik birliklar: *kürsī, qandil, qapas, qutī, qulip, börja / böjra* va boshqalar.

3. Kiyim-kechak va bezak buyumlarini ifodalovchi leksik birliklar: *zūbbā, mäsسی, halqa* va boshqalar.

4. Mehnat qurollari nomlarini ifodalovchi leksik birliklar: *jejvān, jejvānčā, ravat, qapas, sīpa* va boshqalar.

**O'g'uz lahjasida uchraydigan rus tili va rus tili orqali boshqa tillarda o'zlashgan maishiy leksik birliklarda.** Ushbu turdagi so'zlar o'zbek tili va shevalariga rus bosqinidan keyin o'zlashgan bo'lib, mahalliy nutqda rus tilining ta'siri natijasida shevalar va lahjalarda qisman bo'lsa-da iz qoldirgan. Garchi ularning aksariyat qismining o'zbek tilida muqobil variantlari bo'lsa-da, rus tilidagi varianti ham ishlatiladi.

O'g'uz lahjasida uchraydigan rus tili va rus tili orqali boshqa tillarda o'zlashgan maishiy leksik birliklarni quyidagicha mavzui guruhlariga ajratish mumkin:

1. Oshxonaga oid uy-ro'zg'or buyumlarini ifodalovchi leksik birliklar: *pli:tā, iskāvāratka, ti:tan, istikan* va boshqalar.

2. Mehmonxona va yotoqxonaga oid uy-ro'zg'or buyumlarini ifodalovchi leksik birliklar: *iškap, lampa, lampiškā, üstär, ütik, rādij, ädjal* va boshqalar.

3. Kiyim-kechak va bezak buyumlarini ifodalovchi leksik birliklar: *basanožkā, qurtkā, düblönkā* va boshqalar.

4. Mehnat qurollari nomlarini ifodalovchi leksik birliklar: *kulič, šurp* va boshqalar.

#### XULOSA

Bugun global o'zgarishlar tillarning leksik qatlamiga ma'lum ta'sirini o'tkazayotgan davrda, tillarning sheva va lahjalari asl leksik birliklarni saqlab qolishi yoki so'zlarni o'ziga xos tarzda o'zlashtirishi bilan ahamiyatga egadir. O'zbek tilining o'g'uz lahjasida uchraydigan maishiy leksik birliklarning qaysi tillarda o'zlashganligi va qanday o'zgarishlarga uchraganligini o'rganish orqali lahjaning o'ziga xos jihatlarini o'rganishimiz mumkin. Albatta, buning uchun tilimizning turli sheva va lahjalarining leksikasi muhim manbalardan biri hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Уч томлик. I том. – Т.: Ўзфанакаднашр, 1960;
2. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Уч томлик. I том. – Т.: Mumtoz so'z, 2016, 54-b.
3. Xorazm so'zlarining qisqacha izohli lug'ati. Tuzuvchi - Komil Avaz - Urganch, 2006.
4. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент: Фан, 1961.
5. Мадраҳимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг Хива Шеваси - Урганч, 1999.
6. Жуманиёзов Ш. Хоразм шеваси кичик луғати. Урганч: “Қуванчбек-Машхура”, 2019.